

Ishonch telefonlari orqali 79 ta murojaat qabul qilindi

Murojaatlar bo'limi xodimlari 3-7 iyul kunlari Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya, terapiya va tibbiy reabilitatsiya, pediatriya, xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazlarida, Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining ko'p tarmoqli klinikasida, Respublika teri-tanosil kasalliklari klinik shifoxonasida hamda SINO PROFESSIONAL MEDICAL, MEDION FAMILY HOSPITAL, AMERICAN HOSPITAL MChJ hususiy klinikalarida imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan 241 nafar bemorlar bilan tibbiy yordamni baholash, tibbiy yordam sifati va hajmi yuzasidan telemuloqatlar o'tkazdi.

Natijada imtiyozli yo'llanma bilan davolanib chiqqan 9(3,7%) nafar fuqaro oziq-ovqat sifatidan, shifokor hamshiralar muomalasidan, shifoxona sharoitidan, jarrohlik amaliyoti uchun pul sarflaganligidan hamda o'z hisobidan dori vositalari sotib olganligi yuzasidan e'tirozlari borligini bildirdi.

Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasining ishonch telefon(99 353 93 54, 94 353 93 54)lariga 79 ta nafar fuqarodan murojaat kelib tushdi. Murojaatlarning asosiy qismi imtiyozli toifaga ega bo'lgan fuqarolarga Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan yuborilgan "sms" xabarnoma, jamg'arma faoliyati yuzasidan hamda fuqarolarning og'zaki murojaatlari bo'ldi. Shuningdek, ishonch telefonlarimizga hafta mobaynida imtiyozga ega fuqarolardan 9(11,3%)ta og'zaki e'tirozli murojaat qabul qilindi.

Shulardan:

Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazining ko'p tarmoqli klinikasida imtiyozli yo'llanma bilan davolanayotgan bemor oziq-ovqat sifatidan va shifoxona sharoitidan noroziligini bildirib Jamg'armaning ishonch telefoniga o'zining og'zaki e'tirozini bildirdi. Ushbu murojaat yuzasidan shifoxona mas'ullariga telefon orqali murojaatchining ma'lumotlari berildi, bemor e'tirozi o'rinishligi yuzasidan tushuntirildi, og'zaki murojaatlar o'z vaqtida ijobiy hal qilindi.

Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani Yo'ldoshobod OShPd faoliyat olib borayotgan shifokor poliklinikada internet tarmog'i hamda reimbursatsiya tizimi ishlayotganligini bildirgan bo'lsa, viloyat tez tibbiy yordamda o'z faoliyatini olib borayotgan shifokor ish haqi belgilangan summadan kam miqdorda berilganligi yuzasidan Jamg'arma ishonch telefoniga og'zaki murojaat qildi. Ushbu murojaatlar yuzasidan Sirdaryo viloyat bo'linmasi mas'ul xodimlariga murojaatchilarning ma'lumotlari berildi va og'zaki murojaatlar o'z vaqtida bartaraf qilindi. Surxondaryo, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida yashovchi imtiyozga ega fuqarolardan Jamg'arma ishonch telefoniga kelib tushgan og'zaki murojaatlar xududiy bosh mutaxassislariga ma'lumotlari berildi, og'zaki murojaat qilgan fuqarolarga tegishliligi yuzasidan qaerga murojaat qilish kerakligi bosh mutaxassislar tomonidan tushuntirildi.

Murojaatlar bilan ishlash bo'limi xodimlari hafta davomida umumiy hisobda **320 nafar** fuqaro bilan telemuloqot o'tkazdi.

**Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi
Matbuot xizmati**